

## **Abonent mobil qurilmasida o'z-o'ziga xizmat qilish bo'yicha «My Ucell Telegram boti»dan foydalanish bo'yicha Shartnoma-oferta**

### **1. Atamalar va tavsiflar.**

1.1. Operator — «COSCOM» MCHJ

1.2. Abonent («COSCOM» MCHJ, «Ucell» savdo belgisi Abonenti) – «COSCOM» MCHJ tarmog'ida PREPAID tizimi uyali radiotelefon aloqasi xizmatlarini taqdim etish haqida ommaviy oferta Shartnomasi (keyingi o'rinlarda – «Shartnoma») tuzgan jismoniy shaxs.

1.3. Telegram bot – bu Abonentlar so'roviga ko'ra funksiyalarni bajaruvchi, «My Ucell Telegram boti» (keyingi o'rinlarda – «Telegram bot») nomli dastur bo'lib, u abonent qurilmasiga yoki shaxsiy kompyuteriga o'rnatilgan «Telegram®» (Telegram) messenjerida ishlaydi hamda Abonentga o'z mobil qurilmasi orqali o'z shaxsiga oid ma'lumotlariga kirish, Operator xizmatlarini yoqish/o'chirish, shuningdek mazkur xizmatlar uchun o'z raqami hisobidan haq to'lash imkonini beradi. Telegram bot servislar va xizmatlarni WEB-interfeys / WEB API orqali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, yuqoridagi harakatlarni ro'yxatdan o'tmagan holda SMS/USSD/IVR interfeyslari orqali ham amalga oshirish mumkin.

1.4. Vaqtinchalik parol – Telegram botda ro'yxatdan o'tish va ayrim xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi raqamli kod.

1.5. Ro'yxatdan o'tish/Avtorizatsiya – botni ilk bor ishga tushirish va telefon raqamining to'g'riligini tasdiqlash; ushbu raqamga SMS orqali kelgan Vaqtinchalik parolni bot interfeysiga kiritish yo'li bilan Telegram bot orqali harakatlar amalga oshiriladi.

1.6. O'z-o'ziga xizmat qilish hamda servislar va xizmatlarni boshqarish tizimining WEB-interfeysi (WEB-interfeys) – o'z-o'ziga xizmat qilish hamda Operator tomonidan Abonentga ko'rsatiluvchi servislar va xizmatlarni Abonent qurilmasini qo'llagan holda internet tarmog'iga kirish orqali boshqarishni ta'minlovchi dasturiy majmua.

1.7. Operator Sayti – <http://www.ucell.uz/>.

### **2. Umumiy qoidalar**

2.1. Ushbu Ofertaga ko'ra, Operator Shartnomasini qabul qilgan (aksept) hamda Telegram messenjeridagi o'z akkauntida Telegram botni ishga tushirgan Abonentlarga Operator, «My Ucell Telegram boti» Ilovasi orqali o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish xizmatini taqdim etish Ofertasini (keyingi o'rinlarda – «Oferta») qabul qilishni taklif etadi.

2.2. Telegram botda Ro'yxatdan o'tishdan avval Abonent ushbu Oferta bilan tanishib chiqishi va uni qabul qilishi lozim. Telegram messenjeridagi Telegram botiga o'z kontaktini jo'natishi Abonentning Telegram botni ishlatishga roziligini anglatadi. Abonentning Ofertani qabul qilishni rad etishi uning «My Ucell Telegram boti»dan foydalanishni rad etishi hisoblanadi.

2.3. Ofertani qabul qilar va keyinchalik, har gal Telegram botni ishga tushirar ekan, Abonent ushbu Ofertaning qoidalari va shartlariga roziligini ifodalaydi va ularga to'liq hajmda rioya etishga majbur bo'ladi. Abonent o'zining barcha harakatlari uchun, shu jumladan, uning SIM-kartasidan foydalangan holda yoki Telegram bot interfeysi orqali amalga oshirilgan Kompaniya Xizmatlari to'lovi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

2.4. Telegram bot doirasida Abonentga, ulanish mumkin bo'lgan servis va xizmatlarni ko'rish, shuningdek, ularni boshqarish imkoniyati taqdim etiladi. Shuningdek, Abonent hisobining balansini ko'rish, ko'rsatilgan xizmatlar haqida ma'lumot (tafsilot) funksiyalaridan va boshqa qo'shimcha xizmat hamda servislardan foydalanish mumkin bo'ladi. Ushbu holatda barcha harakatlar Telegram botda ro'yxatdan o'tkazilgan tegishli telefon raqami birlashtirilgan Abonent nomidan amalga oshiriladi.

2.5. Telegram bot Abonentga oddiy nomutlaq litsenziya shartlarida taqdim etiladi. Mazkur Ilovaning funksionali Operator Saytidagi Shaxsiy kabinetga kirganida Abonentda taqdim etiladigan servisdan farq qilishi mumkin.

### **3. To'lov shartlari**

3.1. Mazkur Telegram Bot, agarda Abonentning Telegram messenjerida o'rnatilgan va ishga tushirilgan bo'lsa, u holda Abonentga o'z mobil qurilmasidan yoki shaxsiy kompyuterdan Operatorning tizim platformalariga kirish hamda mumkin bo'lgan servislar va xizmatlar bo'yicha turli harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

3.2. Ushbu Ofertaning 3.1-bandida ko'rsatilgan xizmatlardan foydalanish shartlari, narxlari va ularning narxlanish shartlari Operator Saytida ko'rsatiladi. Hisobni o'zgartirishga yo'naltirilgan (biror servis yoki xizmatni faollashtirish va h.k.) harakatlarni amalga oshirayotib, Abonent ularni ko'rish va buyurtma qilish qoidalari, narxi va to'lov tartibi bilan tanishgan va ularga rozilik bergan hisoblanadi.

3.3. Ayrim servislardan foydalanish va xizmatlarni ulatish uchun Abonentning shaxsiga oid ma'lumotlari va boshqa maxfiy ma'lumotlardan foydalanilishi mumkin. Abonent shunday ma'lumotlardan Telegram botda foydalanilishiga o'z roziligini tasdiqlaydi. Telegram messenjeridagi o'z akkauntining maxfiyligiga rioya etilishi uchun Abonent shaxsan mas'ul bo'ladi va, agarda Abonent akkauntiga uchinchi shaxslar kiradigan bo'lsa, uning abonentlik ma'lumotlari oshkor etilishi ehtimoli uchun barcha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi hamda bunday hollarda mazkur fakt bo'yicha Kompaniyaga hech qanday e'tiroz bildirmaslikka majbur.

3.4. Abonent Telegram messenjerida Telegram botni ishga tushirgach, o'zi tomonidan Telegram bot orqali qilinadigan barcha murojaat va harakatlar uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Telegram botdan foydalangani uchun Abonentdan pul mablag'lari olinmaydi.

### **4. Taqdim etish va foydalanish tartibi**

4.1. Telegram botga birinchi kirishida, Abonent ro'yxatdan o'tish jarayonidan o'tadi, bu quyidagi usulda amalga oshirilishi mumkin:

4.1.1. Abonent Telegram botni ishga tushiradi, bot tilini tanlaydi, o'z kontakt raqamini botga jo'natish va ushbu Oferta bilan tanishish zarurligi haqidagi xabarni o'qiydi. Abonent «Kontakt raqamini jo'natish» tugmachasini bosadi, keyin shu raqamiga SMS orqali bir martalik kod oladi. Abonent olingan kodni botga jo'natadi va ro'yxatdan o'tishni yakunlaydi.

4.2. Telegram botdan foydalanish Abonentga amaldagi Shartnoma doirasida ulangan xizmatlar va servislarni boshqarish imkoniyatini taqdim etadi.

4.3. Shartnoma bekor qilinib, Abonent raqami tizimdan o'chirilishi bilan Telegram botga kirish ham to'xtatiladi. Shuningdek, Abonent tomonidan Shartnoma doirasidagi o'z majburiyatlarining bajarilmasligi (jumladan, ko'rsatilgan aloqa xizmatlari to'lovlari bo'yicha qarzdorlik yopilmagani) yoki mazkur Oferta qoidalarining buzilishi holatlarida ham Telegram botga kirish to'xtatilishi mumkin. WEB-interfeysdan foydalanish maqsadlarida Internetga ulanishni, shuningdek Operatorning servis va xizmatlarini boshqarish uchun Telegram botga kirish amalga oshiriladigan o'z qurilmasini sozlash va himoyalashni Abonent o'z hisobidan ta'minlaydi.

4.4. Abonent Telegram botda ro'yxatdan o'tganidan so'ng Telegram botda amalga oshirilgan barcha harakatlar, toki uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari natijasida noqonuniy kirish amalga oshirilgani isbotlanmagunicha, shaxsan shu Abonent tomonidan amalga oshirilgan hisoblanadi.

4.5. Agarda Abonent mazkur Oferta shartlaridagi o'zgarishlarga yoki WEB-interfeys funksionalidagi o'zgarishlarga rozi bo'lmasa, Abonent undan foydalanishni to'xtatish huquqiga ega. WEB-interfeysdan yoki Telegram botdan yana foydalana boshlashi Abonentning amalga oshirilgan o'zgarishlarga roziligini tasdiqlaydi.

### **5. Cheklovlar va mas'uliyat**

5.1. Ilovdan O'zbekiston Respublikasi uyali aloqa operatorlari va internet-provayderlari tarmoqlarida, tarmoq ichidagi va xalqaro roumingda foydalanish mumkin.

5.2. Telegram bot Abonent tomonidan har qanday shaklda daromad topish maqsadida ishlatilishi mumkin emas.

5.3. Telegram bot Operator tomonidan aloqa xizmatlarini ko'rsatish tartibidagi o'zgarishlar, shuningdek xizmat va servislarning tarkibi hamda narxi haqida ma'lumot berish uchun qo'llanishi mumkin.

5.4. Abonent o'z qurilmasida Operator WEB-interfeysining uchinchi shaxslar tomonidan g'arazli maqsadlarda foydalanilishiga sabab bo'luvchi sozlamalar bo'yicha tegishli choralarni ko'rishni, shuningdek, shu turdagi foydalanish holatlari aniqlangan holatlarda zudlik bilan Operator ofislariga murojaat etishni o'z zimmasiga oladi.

5.5. WEB-interfeysdan foydalanish Abonent tomonidan faqatgina amaldagi qonunchilikka muvofiq tarzda amalga oshirilishi mumkin. Undan g'ayrihuquqiy foydalanish holatlarida, Operator zudlik bilan Abonentning unga kirishini ogohlantirishsiz yopib qo'yish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.6. Operator Telegram botdan uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy foydalanish sababli kelib chiqqan ziyon uchun mas'uliyatni va ularni qoplashni o'z zimmasiga olmaydi.

5.7. Abonent o'zining abonent raqamini ishlatgan uchinchi shaxslarning harakatlari uchun va mobil qurilmasidagi abonent raqami bilan Ilovadan foydalanilishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

5.8. Hech qanday holatda Operator, Telegram botdan foydalanganlik yoki foydalana olmaganlik natijasida Abonentga yetgan bevosita yoki bilvosita zarar hamda Operator aybisiz sodir bo'lgan ishdagi xatolik, ishlamay qolish va uzilishlar, funksiyalarning o'zgarishi, kamchilik, ishdagi kechikish va boshqa holatlar natijasida yetkazilgan ziyon uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olmaydi.

5.9. Abonent va uning operatsiyalari haqidagi Telegram botda mavjud ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilganidan tashqari holatlarda uchinchi shaxslarga berilmaydi.

5.10. Telegram botdagi ma'lumotlar, Abonentning shaxsiga oid ma'lumotlari va boshqa maxfiy ma'lumotlarini qo'llamagan holda, marketing tadqiqotlari o'tkazish uchun Operator tomonidan foydalanilishi mumkin.

5.11. Telegram botga kirish va foydalanish uchun olingan parolni o'zgartirish mumkin bo'lgan abonent qurilmasidan (mobil telefon, planshet, smartfon va h.k.) foydalanish imkoniyatining Abonent tomonidan uchinchi shaxslarga taqdim etilishi – Telegram botdan uchinchi shaxslarning noqonuniy foydalanishi oqibatlarini uchun mas'uliyatdan Operatorni ozod etishga to'liq asos hisoblanadi.

5.12. Abonent, Telegram messenjeridagi o'z akkauntiga boshqa shaxsning kirishi va uni boshqarishiga rozilik berar ekan, bunday shaxsning Abonent shartnomasi doirasidagi servis va xizmatlarni boshqarish bo'yicha harakatlari uchun, shuningdek, bunday shaxs tomonidan Telegram bot orqali kirish mumkin bo'lgan barcha maxfiy axborotlarning va shaxsiy ma'lumotlarning saqlanishi uchun barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

## **6. Boshqa shartlar**

6.1. Abonent tomonidan Telegram botdan foydalanishni boshlash uchun mazkur Ofertada ko'zda tutilgan harakatlarning amalga oshirilishi Abonentning mazkur Ofertaga va undagi cheklovlarga to'liq va so'zsiz roziligi hisoblanadi.

6.2. Operator istalgan vaqtda mazkur Ofertaga bir tomonlama tartibda o'zgarish va (yoki) qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ofertadagi o'zgarishlar bilan Telegram botga yangi tahrirni jo'natish vositasida, shuningdek Operator saytida tanishish mumkin bo'ladi. Shu kabi har qanday o'zgarish kiritilganidan keyin Abonent tomonidan Ilovadan foydalanilishi Abonentning shunday o'zgarish va (yoki) qo'shimchalarga roziligini bildiradi.

6.3. Operator oldindan Abonentni xabardor qilmasdan Telegram botning servislari tarkibini, uning tuzilishi va ko'rinishini aniqlashtirish, shuningdek, yangi xizmatlarni joriy etilishi tufayli Telegram botning ishiga o'zgarishlar kiritish, yangi servislarga kirish imkoniyatini taqdim etish huquqiga ega.

6.4. Abonent va Operator mazkur Ofertada to'g'ridan-to'g'ri tarzda ko'zda tutilmagan boshqa barcha masalalarda Abonent shartnomasiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi me'yorlariga tayanadilar.